

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА
ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА**

**DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS ON
THE BASE OF A COMPETENT APPROACH**

Umarova

**Feruzabonu Bobir
qizi¹**

1.- O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogika universiteti va institutlari talabalarining kasbiy rivojlanish sharoitida kompetensiyaviy yondashuvlarga ega bo‘lishlari va amaliyotdagi pedagogik madaniyati tahlil etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan pedagogik sifat va tayyorgarlik mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy tayyorgarlik, professional, mutaxassis, kompetensiya, tayyorgarlik, strategik, ta’lim, pedagog, metodlar, oliy ta’lim muassasalari.

Аннотация. В данной статье говорится о компетентностных подходах студентов педагогических вузов и институтов в контексте профессионального развития и педагогической культуры на практике. Выделены педагогическое качество и содержание подготовки, которую необходимо освоить будущим учителям.

Ключевые слова: Профессиональная подготовка, профессионал, специалист, компетентность, подготовка, стратегическое, образование, педагог, методы, высшие учебные заведения.

Abstract. This article discusses the competence approaches of students of pedagogical universities and institutes in the context of professional development and pedagogical culture in practice. The pedagogical quality and content of training that future teachers need to master are highlighted.

Keywords: Professional training, professional, specialist, competence, preparation, strategic, education, teacher, methods, higher education institutions.

Jahonda iqtisodiyotning ineelkettuallashuv darajasining jadal o‘sib borishi sharoitida oliy ta’lim kishilar faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda. Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruvi tizimlari samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan innovatsion mexanizmlar va vositalarni takomillashtirish, ta’limni moliyalashtirish manbalarini muassasa imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu esa keng ko‘lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlarga ega, yangi va zamonaviy kasbiy talablar hamda mehnat sharoitlariga moslasha oladigan mutaxassis bo‘lishini talab etadi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda faoliyat yurishiga tayyor bo‘lgan professional o‘qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta’lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuni ham e’tiborga olish kerakki, bugungi kunda ta’limning kompetensiya paradigmasiga

*Umarova
Feruzabonu Bobir
qizi
O‘zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti
o‘qituvchisi
umarovaferuzka997@gmail.com*

o‘tish dolzarblashmoqda. Prezidentimizning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistnning Taraqqiyot Stategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[1], O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi [2] tadqiqot ishimizga dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimizda kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oliy ta’lim muassasalarining eng muhim oliga qo‘yan vazifalaridan biri - bu bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Kasbiy tayyorgarlik - zaruriy kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki aniq maqsadlar va natijalar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzbeki, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ko‘lamidan kelib chiqib, o‘quvchilarining yosh xususiyatlari mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularni har jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom, intellektual salohiyatlari, ma’nani barkamol ulg‘ayishi, shuningdek, qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag‘batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu masalalaryi amalga oshirishning yagona yo‘li - oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir.

Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Kompetent yondashuv talabdan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallahni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarini takomillashtirishni talab etadi.

Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallahni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarini takomillashtirishni talab etadi. Ta’lim sohasida bo‘layotgan har bir o‘zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishiga shubha yo‘q.

Xalqaro tajribaga asoslangan, mahalliy pedagogika va psixologiya yutuqlarini e’tiborsiz qoldirib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish o‘zini oqlamaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, ta’limning integral konstruksiyalarini ilmiy asoslashda chet el olimlari P.Ya.Galperin, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn ishlariga tayanganlar. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o‘xshash bo‘lsada, har xil ma’noga ega bo‘lgan atamalardir. Professionallik deganda o‘zlashtirilgan bilimlar, balki mehnat faoliyatiga bo‘lgan munosabat, ishning alohida o‘ziga xos xususiyatlari

tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar alohida ajlarib turadi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog‘liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘qitish ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbek olimlaridan B.S.Abdullayeva, D.S.Sarimovalar pedagoglarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantirish; S.A.Ganiyeva bo‘lajak o‘qituvchilarni ekologik kompitentligini rivojlantirish; A.A.Xasanov muloqot kompetensiyasining tuzilmasi; B.N.Nurillayev va I.T.Qurbanazarovlar eksperimental masalalar orqali o‘quvchilarda ijodiy va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish; O.K.Musayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish(oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari misolida)ish olib borganlar. Bu esa ushbu fanlar misolida o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni va o‘quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘qituvchilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi. S.B.Qorayev, N.I.Tirkashev o‘zlarining tadqiqot ishlarida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta’limning bir qator jihatlarini yoritib berishgan va kasbiy, amaliy kompetentlik turlari, ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilganlar.

Ular o‘z tadqiqot ishlarida Zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadilar. V.I.Baidenko, I.A.Zimney metodologik tahlil darajalariga mos kelishi asosida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini ochib beradi, uning boshqa yondashuvlar bilan aloqasini asoslaydi. Oliy ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muammolarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalar chiqaradi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv – metodologik uchinchi (konkret-ilmiy) darajadagi yagona, o‘ziga xos yondashuv.
- kompetensiya ga asoslangan yondashuvni izohlash mumkin
- tizimli yondashuv sifatida;

•ta’limda ko‘p yondoshuv zamonaviy ta’limning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi omillarida quyidagilar muhim o‘rin tutadi: Psixologik tayyorlash asoslari. Bu asoslarda quydagilar negiz hisoblanadi:

- bola psixologiyasi bo‘yicha bilim berish;
- bola psixologiyasini rivojlantirish bo‘yicha metod bilan qurollantirish;
- bola bilan psixologik ishlashga tayyorlash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliv ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi o‘zida ular faoliyatining sifat tavsifini namoyon etib, bunda ta’lim jarayonining turli ishtirokchilari o‘ziga xos manfaatlarga va muvofiq ravishda uning samaradorligi mezonlariga egadir. Shunga ko‘ra, ta’lim xizmatlari bozorida potensial raqobatchilarni baholash usuli oliv ta’lim xizmatlariga talab va taklif nisbati hamda tayanch raqobatchilar imkoniyatlarini aniqlash orqali oliv ta’lim muassasasining resurs salohiyati integratsiyasini kengaytirish asosida takomillashtirilgan. Bugungi ta’limni modernizatsiyalash sharoitida oliv ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadr-larining pedagogik madaniyatini rivojlantirish va bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

•pedagog kadrлarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetensiyalar va ko‘nikmalarni faol o‘zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonida sifatga urg‘u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish; hamkorlikdagi ta’lim, loyihiy va muammoli ta’lim elementlarini o‘z ichiga olgan «tadqiqotlar orqali ta’lim» kontseptsiyasini amaliyotga keng joriy etish; ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish; pedagoglarning innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim yo‘nalishlardan sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni.2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistnnning Taraqqiyot Strategiyasi” to‘g‘risida”gi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son asosida. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi”.
3. Akmalov A.A. Pedagogning professional kompetentligi va mahorati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Complex print, 2023.–168 b.
4. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. –T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
5. Olimov Sh.Sh, Samiyeva Sh.X., Saidova Yu.Z. Pedagogik

kompetentlik va kreativlik. Daslik. – Buxoro, 2023.

6. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.